



AQSh Adliya Vazirligi
Federal Tergov Byurosi

TAHDID VA QO'RQITISHGA JAVOB BERISH QO'LLANMASI



SHAXSIY TAHDID

JISMONIY SHAXS TOMONIDAN TAHDID sodir bo'lganida tahdidchi shaxsning sizga nisbatan o'ta yaqin holati tufaili hayotingizga muqarrar xavf tug'iladi. Sizda bu vaziyatdan chiqib ketishning uchta imkoniyati bor:

- Qoching:** Qochish yo'lini aniqlang. Sizni sekinlashtirishi mumkin bo'lgan narsalaringizni tashlab yuboring. Iloji bo'lsa, boshqalarning qochishiga yordam bering. 911 raqamiga qo'ng'iroq qiling.
- Bekining:** Tahdidchining nazaridan bekinishga harakat qiling. Eshiklarni qulflang yoki kirish joylarini yoping. Mobil telefoningizni (shu jumladan tebranish rejimini ham) o'chiring va tahdid tugamaguncha sukunat saqlang.
- Mushtlashing:** Mushtlashish so'nggi chora bo'lishi kerak, va faqat hayotingizga xavf muqarrar bo'lgan taqdirdagina. Tahdidchining qobiliyatini yo'q qilishga urining. Iloji boricha kuchli jismoniy tajovuzkorlik bilan harakat qiling.

JISMONIY SHAXS TOMONIDAN TAHDID og'zaki usulda bo'lsa, tahdid qiluvchining hayotiga nisbatan bevosita xatar yo'q bo'lishi mumkin, yoki ushbu tahdid keyinchalik amalga oshirilishi mumkin.

- O'z qo'lingiz bilan yoki boshqa vositalar yordamida tahdidni aynan qanday aytilgan bo'lsa shundai yozib oling.
- Tahdid qilgan shaxs haqida iloji boricha ko'proq tavsiflovchi ma'lumotlarni yozib oling: ismi, tashqi ko'rinishi, terisining rangi, jinsi, bo'yi, vazni, sochlari va ko'zlari rangi, ovozi, kiyimi yoki boshqa har qanday farqlovchi xususiyatlari.
- Huquqni muhofaza qilish idoralariga tahdid haqida xabar bering.



TELEFON ORQALI TAHDID

TELEFON ORQALI TAHDID – telefon vositasi orqali olingan tahdid. Agar tahdid sizga yaqin joyda bo'lmasa, yoki uning sizga yoki boshqalarga ziyon etkazishi muqarrar bo'lmasa, qo'ng'iroq qiluvchi haqida va tahdidning o'zi haqida iloji boricha ko'proq ma'lumot olishga harakat qilishingiz kerak.

- Tinchligingizni saqlang va telefoningizni o'chirmang.
- Qo'ng'iroq qiluvchini iloji boricha uzoqroq telefonda ushlang, va tahdid aniqmi, rostmi, yoki u sizga yoki boshqalarga bevosita xavf tug'diradimi degan savollarni aniqlash uchun ma'lumot olishga harakat qiling.
- Iloji bo'lsa, yaqin atrofda turganlarga shunday signal beringki, ular sizga quloq solsin va huquqni muhofaza qilish idoralariga xabar bersin.
- Telefonning elektron displeyidagi barcha ma'lumotlarni nusxalab oling.
- Tahdid iborasini aniqlik bilan yozib oling.
- Iloji bo'lsa, qo'ng'iroqni elektron asbobga yozib oling.
- Tafsilotlarni huquqni muhofaza qilish idoralarining xodimlari bilan muhokama qilish uchun tayyor bo'ling.



ELEKTRON XABAR ORQALI TAHDID

ELEKTRON XABAR ORQALI TAHDID – to'g'ridan-to'g'ri xabar qilish ilovalari, elektron pochta yoki ijtimoiy axborot tarmoqlari orqali olingan tahdid. Bunga misol shantaj, yoki, agar tahdid qiluvchi talablarga javob bermasa, unda u salbiy oqibatlariga chalinishi mumkinligini anglatgan tahdid bo'lishi mumkin.

- Noma'lum yuboruvchilardan kelgan elektron xabar yoki ilovani ochmang.
- Ijtimoiy axborot tarmoqlarida noma'lum yoki chaqirilmagan shaxslar bilan aloqa qilmang.
- Xavfsizlik sozlamalari eng yuqori himoya darajasiga o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling.

Agar elektron tahdid kelib tushsa:

- Xabarni o'chirmang. Sud ekspertizasi muhim ma'lumotlarni topishi mumkin.
- Xabarni kompyuterda ochiq qoldiring.
- Darhol huquqni muhofaza qilish idoralariga xabar bering.
- Xabarni, mavzu satrini, sanasini va vaqtini chop eting, suratga oling yoki nusxasini oling.
- Barcha elektron dalillarni saqlab qoling.



KIBER HUJUMLAR

KIBER HUJUMI sizning elektron asbobingizga ziyon etkazishi va shaxsiy ma'lumotlaringizni oshkor qilishi mumkin.

- Kuchli parollardan foydalaning va turli veb-saytlar uchun bir xil parolni ishlatmang.
- Antivirus dasturini va boshqa zararli dasturlarga qarshi kurashadigan dasturlarni avtomatik ravishda yangilanadigan qilib o'rnatib.
- Tizim va dasturiy ta'minotlarning yangi versiyalari mavjud bo'lsa, ularni darhol qo'llang.
- Ikki faktorli autentifikatsiyani ishlatib.
- Ma'lumotlarni muntazam ravishda arxivga joylang.

Agar siz kiberhujum qurboni bo'lib qolganingizdan shubhalansangiz:

- Kompyuter tizimlaringizni o'chirib tashlamang yoki o'zgartirmang.
- Banklardagi hisob raqamlaringizni o'g'irlanishdan himoya qilish uchun darhol moliya muassasalariga murojaat qiling.
- Parollaringizni o'zgartiring va banklardagi hisob qaydnomalaringizni shubhali harakatlarni topish uchun kuzatib boring.

Agar sizga nisbatan bevosita jismoniy xavf tug'ilsa, 911 raqamiga qo'ng'iroq qiling.

Agar siz tahdidga duch kelsangiz, iltimos, FTBning mahalliy ofisiga murojaat qiling (www.fbi.gov saytida ro'yxatlar mavjud) yoki 1-800-CALLFBI (yoki 1-800-225-5324) yoki www.fbi.gov/tips orqali ma'lumot yuboring.

Shuningdek, siz FTBga telefon orqali yoki Internet orqali anonim ravishda ma'lumot berishingiz mumkin.



AQSh Adliya Vazirligi
Federal Tergov Byurosi

TAHDID VA QO'RQITISHGA JAVOB BERISH QO'LLANMASI



Agar kimdir menga tahdid qilsa yoki meni qo'rqitsa, kimga murojaat qilishim kerak: mahalliy politsiyagami yoki FTBgami?

- Agar siz yoki boshqalar bevosita jismoniy xavf ostida bo'lsangiz, 911 raqamiga qo'ng'iroq orqali mahalliy politsiya bilan ulaning.
- Agar federal jinoyatchilikka oid tahdidga duch kelsangiz, 1-800-CALLFBI (yoki 1-800-225-5324) raqamiga qo'ng'iroq qilib, FTBning mahalliy shohobchasiga murojaat qiling (ro'yxat www.fbi.gov saytida bor). Masalan, bundai tahdidlar chet el hukumati agenti, uyushgan jinoyatchilik vakillari, yoki birorta davlat idorasi hodimi tomonidan qilingan bo'lishi mumkin. Siz anonim ravishda ma'lumot berishingiz mumkin.
- Hamma zararli xatti-harakatlar ham FTBning ish doirasiga to'g'ri kelmaydi. Agar siz federal jinoyat doirasiga kirmagan hodisaning qurboni bo'lsangiz, unda bu haqda mahalliy politsiya bo'limiga xabar berishingiz kerak bo'ladi. Mahalliy va shtat yurisdiksiyalarining shubhali jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha ish doiralari har xildir.



FTB men bilan suhbatlashadigan bo'lsa, nimani kutishim mumkin?

- FTB xodimi siz bilan FTB ofisida yoki boshqa joyda uchrashishi mumkin.
- FTB sizdan jinoyatchi haqida va boshingizdan kechirgan tahdid tafsilotlari haqida iloji boricha ko'proq ma'lumot berishingizni so'raydi.
- FTB sizdan, ehtiyoj bo'lganda, siz bilan qanday qilib aloqa qilish mumkinligi haqida ma'lumot so'raydi.
- FTB sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni va maxfiylikni himoya qilishga harakat qiladi.
- Zarur bo'lsa, sizga ma'lumot berish va sizni qo'llab-quvvatlash uchun FTBning qurbonlar bo'yicha mutaxassisi ham suhbatga qo'shilishi mumkin, yoki ular siz bilan suhbatdan so'ng telefon yoki pochta orqali bog'lanishlari mumkin.



FTB qandai hollarda shikoyatni tekshirishga va / yoki tergovni boshlashga kirishadi?

- FTB AQSh federal qonunlariga qarshi bolgan va tahdid ostida qolganlarga nisbatan ziyon yoki xavfni anglatadigan tahdidlarni tekshirishga qodir.
- AQSh hukumatining shaxslarni tahdidga oid ayblovlar bilan jinoiy javobgarlikka tortish qobiliyati bir necha omillarga bog'liq, masalan: dalillarning sifati, ziyonvor harakatni sodir etgan shaxslarni aniqlash qobiliyati, fitna uyushtirilganligining aniqlanishi, va / yoki huquqbuzar shaxslarni hibsga olish qobiliyati.



FTB tergovni boshlasa, men nimani kutishim mumkin?

- Agar FTB federal jinoyati sodir etilgan bo'lishi mumkin deb hisoblasa, Federal Tergov Byurosining bir yoki bir nechta maxsus xodimlari tergov o'tkazadilar. Tergov doirasida maxsus agentlar turli dalillarni to'plashadi, va ushbu dallillarga siz va boshqa jabrlanganlar bilan o'tkazilgan suhbat kirishi mumkin.
- Boshingizdan kechirgan hodisalarni federal hakamlar hay'ati oldida tavsiflab berish ham sizdan so'ralishi mumkin.
- Batafsil tekshiruv yakunlanadi. Tergovni yakunlash uchun ancha vaqt zarur bo'lishi mumkin, va tergovning kundan-kunga qanday rivoj etayotganligi haqida sizga xabar berilmaydi. Tergov davomida sodir bo'lgan muhim hodisalar, masalan, hibsga olinganlik yoki ayblash hukmi chiqarilganligi haqidagi xabarlar sizga etkazish uchun barcha harakat qilinadi. FTB, imkoni bo'lganda, shu kabi ma'lumotlarni sizga jamoatchilikka e'lon qilinishidan oldin taqdim etishga intiladi. Biroq, tergovga ziyon keltiradigan, yoki huquqni muhofaza qilish idoralariga nisbatan xavfni oshirishi mumkin bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik uchun FTB doimo ehtiyotkorlik bilan ishlashi zarur.
- FTBning qurbonlar bo'yicha mutaxassisi aniqlangan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashga, ularga ma'lumot berishga, va zarur bo'lishi mumkin bo'lgan mahalliy manbalar haqida ma'lumot ta'minlashga tayyor bo'lib turadi.

Tahdid yoki qo'rqitishga oid siz bergan tafsilotli ma'lumot natijasida tergov ochilmagan taqdirda ham, bu tahdidlarni kuzatish va tendentsiyalarni aniqlashga, va shu orqali boshqa qurbonlarga ham yordam berishi mumkin.

WWW.FBI.GOV SAYTIDA FTB OFISLARINING RO'YXATI, JUMLADAN SHAHAR VA SHTATLAR BO'YICHA ALOQA UCHUN MA'LUMOT MAVJUD. AGAR MUQARRAR XAVF OSTIDA BO'LSANGIZ, 911 RAQAMIGA QO'NGIROQ QILING.